
2017 yil – «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

FARMOYISHI

«XALQ BILAN MULOQOT VA INSON MANFAATLARI YILI» DAVLAT DASTURINI ISHLAB CHIQUISH VA AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 8-son, 119-modda)

Mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarning sifati va natijadorligini tubdan oshirish hamda insonning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini, shu jumladan odamlar hayotining munosib darajasini ta'minlash, ular amalga oshirilishi uchun davlat organlarining roli va mas'uliyatini kuchaytirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish va ularning murojaatlari bilan ishlashning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, fuqarolarni bezovta qilayotgan hayotiy muammolarni o'z vaqtida hal etish, «Inson manfaatlarini har narsadan ulug'» degan ezgu g'oyani hayotga izchil joriy etish maqsadida, shuningdek 2017 yil O'zbekiston Respublikasida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan:

1. «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi 1-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

2. Respublika komissiyasi (A.N. Aripov) jamoat tashkilotlarini va Hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlarni, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini keng jalb etgan holda vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturi loyihasini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritсин.

Vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik birlashmalari, jamoat tashkilotlari va Hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlardan tushayotgan materiallar va takliflarni umumlashtirish uchun 2-ilovaga muvofiq tarkibda yig'ma ishchi guruh tashkil etilsin.

3. «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishda quyidagi muhim, ustuvor vazifalar amalga oshirilishi bo'yicha aniq takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratilsin:

qabul qilingan qonunlar, farmonlar va boshqa qonun hujjatlari bajarilishi, davlat organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi bo'yicha ular ishining samaradorligi, ular tomonidan insonning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishi, fuqarolarning murojaatlariga munosabat bildirilishi yuzasidan Parlament va jamoatchilik nazoratining doimiy ishlaydigan ta'sirchan mexanizmlarini shakllantirish;

fuqarolarning va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, barcha darajalardagi hokimlarning, prokuratura va ichki ishlar organlarining aholi oldida hisobot berishi tizimini amaliyotga joriy etish, shu asosda xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;

joylarda «xalq qabulxonalari»ni tashkil etishning aniq huquqiy, tashkiliy-amaliy, moddiy-texnik va moliyaviy asoslarini belgilash, ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, fuqarolarning murojaatlari eng ko'p tushadigan sohalarda byurokratik to'siqlar va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

talab etiladigan davlat xizmatlarini aholiga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha bir idora orqali ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, ushbu jarayonlarga va davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat»ning samarali tizimini shakllantirish;

sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini mustahkamlash va odil sudlovga erishish, fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilish instituti sifatida advokaturaning roli va ahamiyatini yanada oshirish, sud-huquq sohasida advokatlarning vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

aholining huquqiy madaniyatini va moliyaviy-iqtisodiy savodxonligini oshirish, fuqarolarni qonunni hurmat

qilish ruhida tarbiyalash tizimini shakllantirish, jamiyatda huquqbuzarlikka toqatsizlikni kuchaytirish, «Adolat — qonun ustuvorligida» tamoyilini jamiyat hayotida keng qaror toptirish;

iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini bosqichma-bosqich kamaytirish, davlat boshqaruvi organlarining tuzilmasi, vazifalari va vakolatlarini optimallashtirishga, ularga xos bo'lmagan bir-birini takrorlovchi funktsiyalarni qisqartirishga, davlat xizmati institutini isloh qilishning samarali tizimini shakllantirishga, davlat xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy ta'minotini tubdan takomillashtirishga, davlat xizmatiga zamonaviy fikrlaydigan tashabbuskor, mas'uliyatli, kasbiy tayyorlangan kadrlarni jalb etishga yo'naltirilgan Ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirish kontseptsiyasini ishlab chiqish;

iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash, iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish ishlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy mulkning har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;

hududlarni, ayniqsa ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan tumanlar va shaharlarni, chekka aholi punktlarini kompleks, jadal rivojlantirish, tijorat banklarining faol ishtirokida yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash va shu asosda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdorlarini bosqichma-bosqich ko'paytirish, aholining hayoti darajasi va sifatini oshirish;

muhandislik-kommunikatsiya, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholi hayoti sharoitlari va sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon va qulay uylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish;

ta'lim, ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash tizimlarini, shu jumladan onalik va bolalikni muhofaza qilishni yanada rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning iqtidorlari va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularning hayotda munosib o'ringa ega bo'lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jamiyatda hukm surayotgan o'zaro hurmat va birdamlik vaziyatini yanada mustahkamlash, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar yaratish, mahalla instituti, xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari, faxriylar tashkilotlarining roli va ahamiyatini kuchaytirish, mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOEV

Toshkent sh., 2016 yil 17 dekabr,

F-4760-son

2017-06-17 13:54:40